



XORAZM VOHASI AHOLISINING QADIMIY DINIY E'TIQODLARI VA AN'ANALARI TARIXI

Xajiyeva Oysha Ikrom qizi

Urganch Davlat Universiteti Tarix fakulteti
Tarix yo'nalishi 2- bosqich magistranti
Tel: +998 99 415-46-34

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xorazmning qadimiy e'tiqod tarixi haqida ba'zi mulohazalar keltirib o'tilgan. Xorazm eng qadimgi davrlardan boshlab insonlarni o'ziga jalg qilib kelgan hudud hisoblanadi. Buning o'ziga yarasha sabablari bor albatta. Qayerdag'i inson yashashi uchun sharoit bo'lsa, uyer insoniyat beshiklariyaratilishiga asos bo'lgan. Demak, O'rta Osiyo, jumladan Xorazm ham qadim zamonlardan inson yashashi, turmush kechirishi, xo'jalikyuritishi uchun zarur sharoit, qulay iqlimga ega bo'lgan zamin bo'lgan.

Kalit so'zlar: E'tiqod, qadimiy maskan, O'rta Osiyo, me'ros, zardushtiylik, "Avesto", monotheism, V. Mannhardt

Annotation: This is an article in insight into the history of ancient religions in Khorezm. Khorezm has attracted people since ancient times. There are, of course, reasons for this. Where there were conditions for human habitation, there was a basis for the creation of human cradles. This means that Central Asia, including Khorezm, has long been a land with the necessary conditions for people to live, livelihoods, economies and a favorable climate.

Key words: Vera, settlement, Central Asia, heritage, zoroastrainism, "Avesta", monotheism, V.Mannhardt.

Xorazm hududidagi eng qadimgi dehqonchilik madaniyati tarixi, dehqonchilik marosimlari va ularning genezisini tadqiq qilishda o`tmish ajdodlarimiz turmush tarzini o`rganishda, tarixiy jarayonlarni rekonstruksiya qilishda hamda xalqimizning qadimgi davlatchilik an`analari va mintaqadagi qadimgi urbanistik jarayonlarni ilmiy asosli tarzda o`rganishda muhim ahamiyatga ega. Bu borada jahon fanida boy tajriba to'plangan bo`lib, nemis folklorshunosi V. Mannhardt tomonidan ilk bora dehqonchilik bilan turli afsonalar va obrazlarda o'simliklar olamining jonlanish sirlari namoyon bo'lishi muammozi ilgari surilgan. V. Mannhardtning ta`kidlashicha, marosimlar asosida inson tabiatdagi barcha boshqa mavjudotlar kabi o'simliklarda yashaydi, degan qarash mujassamlashgan. Olimning fikricha, ruxning o'simlikka evrilishi to'g'risidagi mifologiya quyi mifologiya yuqori iloxdar to'g'risidagi mifologiyaga asos bo'lgan va aynan quyi mifologiya o'ziga xos yashovchan bo'lgan hamda uning izlari dehqonchilik marosimlarida yaxshi saqlanib qolgan. Mashxur ingliz tadqiqotchisi J.Frezer Mannhardt materiallariga suyangan holda qadimiy agrar



diniy dunyoqarashga oid manzarani qayta tiklagan va uning rivojlanish bosqichlarini ko'rsatgan hamda antik madaniyatning turli rivojlanish bosqichlarida oraliq bo'g'in tarzida ahamiyatga ega deb ta'kidlagan. Qolaversa, etnolog olim tarixiy -taqqoslash usuli asosida ilk mifologik qarashlar va rituallar bilan Yevropa xalqlarining dehqonchilik marosimlarining o`zaro bog`liqligini ko'rsatib berishga harakat qilgan. Darhaqiqat, dehqonchilik an`analari qadimiy ildizlarga bog`lanishi bilan birga o`ziga xos marosimlarga ham ega bo`lgan. Zardushtiylik eng qadimgi dinlardan bo`lib, bu din er.avval VII-VI asrlarda dastavval O'rta Osiyoda-Xorazm vohasida paydo bo`lgan. Uning payg'ambari Zardusht tarixiy shaxs edi. U mazdakiylik dinini isloh qilib, uning asosida yangi yakka xudolik dinini ijod etgan.

Zardushtiylik paydo bo`lgan davr birinchi sinfiy jamiyat, ya'ni quldorlik davri endi paydo bo'layotgan davr edi. U urug'-qabilachilik tuzumi emirilib aholi qullar va quldorlarga, zolim va mazlumlarga bo'linayotgan davr bo`lgan. Bu din eng avval O'rta Osiyo, so'ng Eron, Ozarbayjonda qaror topgan edi.

Butun O'rta Osiyo moddiy va ma'naviy madaniyatining beshigi Xorazm vohasi va u erda yashagan turkiy elatlar bo`lgan, shulardan o'zbek elati tashkil topgan.

Umuman olganda, zardushtiylik dini qadimdan Xorazm vohasi aholisining eng qadimgi e'tiqodlariga asrlar davomida ta'sir ko'rsatib borgan.

Qadimgi Xorazm davlati mil.avv. IV asrdan milodiy III asrgacha eng qudratli davlatlardan biri bo`lgan. Beruniy ma'lumotiga ko'ra, shu davrda Xorazm hududida 300 dan ortiq shaharlar bo`lgan . Ularning xarobalari bugungi kungacha saqlanib qolgan. Bu ma'lumotni arxeologik tadqiqotlar ham isbotlaydi. O'tgan asrning 70-yillar oxiriga kelib 300 dan ortiq yodgorliklar topilgan bo'lsa , XX asrning 90-yillar oxirida ularning soni 400 ga yetgan - Xiva, Xazarasp, Ko'na-Uaz, Qandumqal'a, Guldursun, Akchaxon qal'a, Katta Aybuyirqal'a, Voyangan... Kanallarning uzunligi 40-50 km va undan ham ortiq bo`lgan. Kal'alarining fortifikatsiyasi, ya'ni mudoaa tizimi nihoyatda mustaxqam bo`lgan. Barcha qal'alarda nayzasimon shinaklari bo`lgan ikki yarusli o'q otadigan yo'laklar, davrvoza odida labirint, mustaxkam burjlari bo`lgan. Qadimgi Xorazm davlati chegaralari bo'yab chegara qal'alarini bunyod etilgan. O'ng qirg'oq Xorazmda Burli qal'a, Ayazqal'a, kichik Qirqqizqal'a, Qo'rg'oshinqal'a, Jonboqal'a, chap qirg'oqda -Akcha gelin, Gaurqal'a, Kangaqirqal'a... Har bir bunday qal'alar atrofida ochiq shakladgi manzilgohlar topilgan. Ularda orasida bir bino alohida



ajralib turgan. Uning atrofi uzumzorlar va dalalar bilan o‘ralgan. Bu shu xududning hokimining yashashgan joyi bo‘lsa kerak. Bu esa, qishloq joylarida tabaqalanish jarayoni bo‘lganligidan darak beradi. Qo‘rg‘oshinql’adan ko‘p miqdorda yirik xumlar va chuqurchalar topilgan. Bu uning o‘sha xududning, qishloq jamoasining omborxonasi vazifasini o‘tganligi aniqlangan.

Qadimgi Xorazm davlati atrofidagi ko‘chmanchi qabilalar bilan savdo sotiq munosabatlarini o‘rnatgan. Bu uning ko‘plab miqdorda, ya’ni savdo uchun sopol ishlab chiqargani, uzumchikni va vino i/chni rivojlantirgan. Ularni ishlab chiqarish markazlari barchasi chegara xududlarda bo‘lgan. Davlat chegaralarida ko‘plab ko‘chmanchilarining mozor qo‘rg‘onlari topilgan.

Qadimgi Xorazm davlatining poytaxti masalasi ham bugungi kunga kelib yanada oydinlashtirildi. XX asrning 80-yil oxirlarigacha poytaxt shaxar Tuproqqal'a shaxri deb kelingan edi. Lekin 2000- yillarda Oqchaxonqal'ada olib borilgan arxeologik tadqiqotlar qadimgi Xorazmnинг poytaxti Oqchaxonqal'a yodgorligi ekanligi isbotlandi. Mazkur yodgorlik o‘zining qurilish uslubi, saroy bezaklari, topilmalari va shohlarning devoriy suratlari bilan alohida ajralib turadi . 1982-1985-yillarda G.Xojaniyozov olib borgan qazishmalari natijasida Oqchaxonqal'a qadimgi Xorazm davlatining birinchi poytaxti bo‘lishi mumkinligini aytadi. Oqchaxonqal'a qadimgi Xorazmnинг maydoni jihatdan Qalaliqir-1 dan keyingi eng yirik (56 hektar) shahri Oqchaxonqal'a shimol va sharqdan uzun devor bilan o‘ralgan. Bu Xorazmnинг boshqa yodgorligida uchramaydi. Shahar ikki qismidan iborat bo‘lgan: ichki shahar markazida Otashkada, hukmdorning qarorgohi va ibodatxona bo‘lgan. U ham mustahkam mudofaa devori bilan o‘rab olingan.

Qadimgi sharq poytaxt shaharlarida (masalan, Persopol) kuzatiladigan qabul marosimlari uchun mo‘ljallangan “yuz ustunli zal” bo‘lgan. U yerdan shohona marosimlar va diniy e’tiqodlar bilan bog‘liq ko‘plab devoriy rasmlar ham topilgan. Bunda boshiga toj kiygan shoh suratlari ham topilgan. Shoh boshiga ilohiy qush-Humo qo‘nib turgani Oqchaxonqal'a haqiqatdan ham qadimgi Xorazm davlatining poytaxti ekanligini ramziy belgisi deb izohlashimiz mumkin.

Zardushtiylik eradan avvalgi 7-6 asrlarga xos bo‘lgan din sifatida undan oldingi urug’ qabilachilik dinlari negizida paydo bo‘lgan yakka xudolik dini bo‘lgan. U to 7-9 asrlargacha turli shaklda davom etib, so‘ng o‘rnini islom egalladi. U dastavval Xorazm vohasida shakllanib, yaqin va o‘rta Sharqqacha tarqalib, ayrim qoldiqlari haligacha saqlanib kelmoqda. Zardushtiylik mil. av. III-II



ming yilliklarda Markaziy Osiyoda vujudga kelgan dindir. Zardushtiylik vahiy orqali e'lon qilingan jahon dinlarining eng qadimiysiadir. U insoniyatga boshqa barcha dinlarga nisbatan bevosita va bilvosita eng ko'p ta'sir o'tkazgan dindir. Insoniyat tarixida har bir kishi uqidan ilohiy hukm amalga oshirilishi, jannat va jahannam, qiyomat-qoyim, unda tanalarning qayta tirilishi, tana va ruh qayta birlashib mangu yashashi haqida birinchi bor shu din doirasida fikr yuritildi. Keyingi asrlarda bu g'oyalar yahudiylilik, xristianlik va boshqa dinlar tarafidan o'zlashtirildi. Aytib o'tish joizki, ushbu din paydo bo'lgan davr va uning vatani – hali fanda oxirigacha to'liq echilgan masalalar emas. Zardushtiylik dini payg'ambar Zardusht nomiga nisbat berilib, shartli ravishda shunday atab kelinadi. Aslida esa u mazkur dinning muqaddas kitobi hisoblanmish Avestoda «Mazdayasna» dini deb atalgan. Bu so'zni «Mazdaga sig'inmoq» deb tarjima qilish mumkin. «Mazda» so'zi «donish, donishmand, oqil» kabi talqin etiladi. Zardushtiylik yana «Behdin», ya'ni «Eng yaxshi din» deb ham ulug'langan. Uning ta'limotiga ko'ra, barcha ezgu borliq Mazdaning irodasi bilan yaratilgan. «Mazda» so'zi oldiga ulug'lash ma'nosini anglatuvchi «Axura» qo'shib, zardushtiylikning ilohiyati – Axura-Mazda nomi paydo bo'lgan. Bu – «Janob Mazda» yoki «Iloh» demakdir. Zardusht nomi tadqiqotlarda Zaratushtra, Zarduts, Zoroatsr ko'rinishlarida ham ishlatiladi. Tadqiqotchilar o'rtasida Zardushtning tarixda bo'lgan yoki bo'lmanligi borasida turli fikrlar mavjud. Ba'zilar uni tarixiy shaxs deb bilsalar, boshqalar afsonaviy shaxs deb hisoblaydilar. Manbalarning xabar berishicha, u taxminan mil. av. 1200-570 yillar orasida yashagan ilohiyotchi, faylasuf, shoirdir. Tadqiqotchi M. Boys ta'kidlashicha, u mil. av. 1500-1200 yillar orasida yashagan. Zardusht Markaziy Osiyo hududida mavjud bo'lgan ko'pxudolikka negizlangan qadimiyligi tasavvur va e'tiqodlarni isloq qilib, yangi dinga asos soldi. Zardushtning tug'ilgan va ilk diniy faoliyatini boshlagan joyi xususida ikki xil qarash bor. Birinchisi – «G'arb nazariyasi» bo'lib, unga ko'ra Midiya (hozirgi Eron hududida) Zardushtning vatani va zardushtiylikning ilk tarqalgan joyi hisoblanadi. Bu fikr tarafdarlarining dalili shuki, birinchidan, zardushtiylikning qadimiyligi Eron hududlarida keng tarqalganligi bo'lsa, ikkinchidan, zardushtiylikning muqaddas kitobi sanalmish Avestoga keyin yozilgan sharhlarning qadimiyligi Eron-pahlaviy tilida bo'lganligidir. E'tibordan chiqarmaslik kerakki, zardushtiylik uch buyuk Eron imperiyasi – Ahamoniylar, Arshakiylar va Sosoniylar davrlarida, ya'ni mil. av. XI asrdan to mil. XII asrigacha ketma-ket aynan Yaqin va O'rta Sharqda davlat dini maqomida bo'lgan. Ikkinchisi, «Sharq



nazariyasi» bo'lib, unga ko'ra, Zardusht vatani va zardushtiylikning ilk tarqalgan joyi Xorazm hisoblanadi. Ko'pchilik manbashunoslar ikkinchi nazariya tarafdarlaridirlar. Xorazm zardushtiylikning muqaddas olov Ozarxurra birinchi bor yoqilgan va eng buyuk xudo – Axura-Mazdaning Zardusht bilan bog'langan joyi hisoblanadi. Zardushtiylikning asosiy manbasi Avestoda: «Birinchi bor muqaddas olov – «Ozarxurra» «Airyanem-Vaeja» (ba'zi manbalarda – «Eran-vej»)da yoqildi», deyiladi. «Airyanem-Vaeja»ning geografik va iqlimiyl tavsifi Xorazmnikiga to'g'ri keladi. Avestoda Axura-Mazda tomonidan yaratilgan «Barakot va najot» sohibi bo'lgan bir qator mamlakatlar zikr etiladi va ularning eng birinchisi, «dunyoda hech narsa chiroyiga teng kela olmas Airyanem-Vaeja», keyin esa «odamlar va chorva podalariga mo'l» Sug'd (So'g'd), «qudratli va muqaddas» Mouru (Marv), «baland ko'tarilgan bayroqlar mamlakati» Baxdi (Baqtriya) zikr etiladi. Zardushtiylik ta'limoti. Zardushtiylik ta'limoti Markaziy Osiyoda ibtidoiy davrda mavjud bo'lgan tabiat kuchlarini ilohiylashtiruvchi e'tiqodlarga (Markaziy Osiyo qadimgi ahonisining «eski dini»ga) nisbatan monoteitsik ta'limotdir. U behuda qon to'kuvchi qurbanliklar, harbiy to'qnashuvlar, bosqinchilik urushlarini qoralab, o'troq, osoyishta hayot kechirishga, mehnatga, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanishga da'vat etadi. Moddiy hayotni yaxshilashga urinishni yovuzlikka qarshi kurash deb hisoblaydi. Zardushtiylik dinida qo'riq er ochib, uni bog'u rog'ga aylantirgan odam ilohiyot rahmatiga uchraydi. Aksincha, bog'lar, ekinzorlarni, sug'orish inshootlarini buzganlar katta gunohga qoladilar. Zardusht insonlarga tinch-totuv yashashni, halol mehnat qilishni o'rgatmoqchi bo'ladi. Bunga ko'ra insonning bu dunyodagi hayotiga yarasha narigi dunyodagi taqdiri ham bo'lajak, har bir inson o'lgandan so'ng o'zining bu dunyodagi qilmishiga yarasha abadiy rohat – jannatga, yoki yomon ishlari ko'p bo'lsa na xursandlik va na xafalik ko'rmaydigan arosat joy – misvongatuga tushadi. Zardushtiylik negizida olamning qarama-qarshiliklar kurashi asosiga qurilgani turadi: yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va qorong'ulik, hayot va o'lim o'rtasida abadiy kurash davom etadi. Barcha yaxshiliklarni Axura-Mazda va barcha yomonliklarni Anxramaynyu (yoki Axriman) ifodalaydi. Axura-Mazda insonlarga ezgu ishlarni bayon etib ularga amal qilishni buyuradi, yomon ishlardan saqlanishga chaqiradi. Zardushtiylikda imon uchta narsaga asoslanadi: fikrlar sofligi, so'zning sobitligi, amallarning insoniyligi. Har bir zardushtiy kuniga besh marta yuvinib, poklanib, quyoshga qarab, uni olqishlab, sig'inishi shart. Zardushtiylik ibodatxonalarida doimiy ravishda olov yonib turadi. Ularda



dunyodagi to'rt unsur – suv, olov, er va havo ulug'lanadi. Zardushtiylik dafn marosimi o'ziga xos bo'lib, o'lganlar bir necha pats, baland «sukut minoralari» – daxmalarga solinadi, u erda murdalarning go'shtlarini qushlar eb, suyaklarini tozalaydi. Go'shtdan tozalangan suyaklar maxsus sopol idishlarga solinib minora o'rtasidagi quduqqa sochib yuboriladi. Bunda poklik bilan noplilikning bir-biriga yaqinlashmasligiga erishiladi.

Bugungi kun nuqtayi nazari bilan qaraganimizda, qadim o'tmishdan zardushtiylik an'analari va e'tiqodi bilan shakllangan xorazmliklarning hozirgi turmush- tarzida ham zardushtiylikning saqlanib qolganligiga guvoh bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Харезм- в истории государственности Узбекистана. Т., 2013.
2. Машарипов О. Хоразмнома. –Т., 2010.
3. Қадим пойтахтни излаб. //”Фан ва турмуш”, 2006, №1-3.
4. "Avesto"dan (tarj. M. Isoqov) O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 1999. №2–
5. Беруний Абу Райхон, Қадимги ҳалқлардан қолган ёдгорликлар. –Т.: 1968. 231-бет.
6. Воробьева М.Г. Проблема «Большого Хорезма» и археология // Археология и этнография Средней Азии. – М.: Наука, 1979.– С. 40
7. Рапопорт Ю.А. Краткий очерк истории древнего Хорезма в древности // Приаралье в древности и средневековье. – М.: Наука, 1998. – С. 31–32.
8. Ходжаниязов Г.Х., Ягодин В.Н., Хелмс С.У., Макларен Б.К. Раскопки на Аксаханкале // Археологические исследования в Узбекистане 2000 г. – Самарканд, 2001. – С. 175
9. Ochilov, I. (2023). IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN FORMING THINKING AND SKILLS IN HISTORY LESSONS. Science and innovation, 2(B4), 481-484.
10. Нематов, Р. (2023). Илк ўрта асрлар Хоразм тарихшунослигининг бугунги ҳолати. Марказий Осиё тарихи ва маданияти, 1(1), 122-125.